

YOSHLAR ICHIDA TA'LIM MIGRATSIYASINING IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA NIZOMLARI

Beknazarova Madinaxon Abdumalik qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti magistri

Beknazarovamadina4484@gmail.com

+998881264484

***Annotatsiya:** Bu maqolamiz orqali ta'lim migratsiyaning O'zbekiston Respublikasidagi yoshlar ma'naviyatiga ta'siri Yangi O'zbekistonda migratsiya sohasidagi islohatlarning mohiyati, migratsiyaning jamiyatimizda qaror topgan milliy ma'naviy qadriyatlar haqida so'z boradi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilari, hududlardagi yoshlar va professional ta'lim muassasalari o'quvchilarning kasb egallashga hamda chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida turli xil say-harakatlar olib borilmoqda.*

***Kalit so'zlar:** Ta'lim muassasalari, professional ta'lim, migratsiya, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, liberallashtirish, o'quv kurslari, oliy ta'lim*

Bu maqolamiz orqali aholi migratsiyasining O'zbekiston Respublikasidagi yoshlar ma'naviyatiga ta'siri, Yangi O'zbekistonda migratsiya sohasidagi islohatlarning mohiyati, migratsiyaning jamiyatimizda qaror topgan milliy ma'naviy qadriyatlar tizimining transformatsiyasiga sabab bo'layotganligi, ushbu sohada mavjud muommolar va ularni yechish uchun lozim bo'lgan vazifalar, istiqbolda yurtimizda ma'naviy muhit va aholi migratsiyasining o'zaro ta'sirlashuvini tadqiq etish bilan bog'liq muommolar haqida so'z yuritilgan. Xususan, so'nggi yillarda yurtimizda migratsion siyosatda amalga oshirilayotgan islohatlar, xorijdagi o'zbek diasporalari bilan ikki tomonlama foydali hamkorlik aloqalarining o'rnatilayotganligi, mehnat muhojirlarining migratsiyagacha

maxsus tayyorlov kurslarida o‘qitish tizimi tashkil etilganligi, xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi kontseptsiyasining yaratilganligi tahlil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish Chora-tadbirlari to‘g‘risida “ 2022-yil 19-yanvardagi PQ 92- sonli qarori, shuningdek, 2022-yil yanvardagi PQ-96-son qaroriga muvofiq ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz bo‘lgan yoshlarni “ Yoshlar daftari” ni yuritish orqali ishlash tizimini yanada takomillashtirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oliy ta‘lim tashkilotlari talabalari o‘rtasida intellektual sog‘lom raqobatni shakllantirish, yoshlarning bilim va salohiyatini yanada hamda ularni rag‘batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qildi.

Bugungi kunda XTM ning hisob-kitoblariga ko‘ra, xalqaro muhojirlar soni dunyo bo‘ylab 272 mln. kishiga yetgan va ularning uchdan ikki qismi mehnat migrantlari hisoblanadi. Bu dunyo aholisining 3,5 foizi hisoblanadi. Tashqi mehnat migratsiyasi sohani liberallashtirish O‘zbekiston mehnat migrantlariga xalqaro mehnat bozorining to‘laqonli ishtirokchilariga aylanishiga imkon berdi. Xususan, qabul qilingan o‘ndan ortiq normativ-huquqiy hujjatlardan tashqari, xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini tashkil etish sohasida ikki tomonlama hukumatlararo bitimlar tuzildi. Xalqaro standartlar asosida yangi qonunlar chiqilmoqda va mavjudlariga o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Xorijiy ish beruvchilarning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlariga, asosan, professional ta‘lim muassasalarida o‘qitadigan kasblar (mutaxassisliklar) hamda chet tillarini bilish darajasiga qo‘yilgan talablar bo‘yicha buyurtmalarni shakllantirish, xorijda ishlash istagi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqoralarini ish beruvchilar tomonidan tanlab olish jarayonlarini tashkil etish; O‘quv kurslari tashkil etiladigan professional ta‘lim muassasalarini xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi, madaniyati va muassasalari va xorijiy ish beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni ta‘minlash hamda xorijiy mutaxassislarni ta‘lim jarayoniga jalb etish; Kasbiy ko‘nikmalar bo‘yicha treninglar va seminarlar o‘tkazish hamda yoshlarning xorijiy kompaniya yoki tashkilotlarda amaliyot va

stajirovkalar o‘tashini tashkil etish kabi chora-tadbirlar olib borilayotgani va bu masalalar qonunchilik xujjatlari bilan belgilab qo‘yilgani, O‘zbekistonda yoshlar ta’lim migratsiyasiga katta e’tibor berilayotganining dalilidir. Bu masalalar bilan alohida markaz ham shug‘ullanadi. Markaz o‘z faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmasdan bevosita Agentlik rahbarligida amalga oshiradi.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi, Maktabgacha ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “ Oila “ ilmiy-amaliy markazining O‘zbekiston yoshlar Ittifoqi Markaziy Kengashi qoshidagi Yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish markazi negizida ta’limning barcha bosqichlarida psixologik xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalar uchun muloqot maydoniga aylanadigan, tegishli davlat idoralari bilan hamkorlikda ish olib boruvchi “ Oila “ ilmiy-amaliy tadqiqot markazi qoshida Yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish Respublika markazi etib qayta tashkil etish to‘g‘risidagi takliflari qullab – quvvatlandi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilari, hududlardagi yoshlar va professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarning kasb egallashga hamda chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida turli xil say-harakatlar olib borilmoqda. Bu esa yoshlar o‘rtasida ta’lim migratsiyasining xususiyatlarini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimov Sardor “Aholi migratsiyasi ijtimoiy-axloqiy muhit transformasiyasi.
2. G‘oziyev.E.Psixologiya (Yosh davrlar psixologiyasi) o‘quv qo‘llanma - Toshkent. “O‘qituvchi” 1994.
3. “ Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida * 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son
4. [https//parlament.gov.uz/uz events/ comminttee/34644](https://parlament.gov.uz/uz/events/comminttee/34644)